

ICHKI AUDIT HISOBOTINI TUZISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Davronov Kamol G`ayrat o`g`li

O`zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasi tinglovchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ichki audit hisobotini tuzish tartibi, uning tashkilot faoliyati samaradorligiga ta'siri, xalqaro standartlar va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Ichki audit tizimi nafaqat tekshiruv natijalarini aks ettiruvchi hujjat, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda strategik vosita bo'lib xizmat qilishi lozim. Maqolada mavjud muammolar, takomillashtirish mexanizmlari va amaliy tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: ichki audit, audit hisobotlari, audit sifati, tavsiyalar, xalqaro standartlar, tashkilot samaradorligi.

KIRISH

Bozor munosabatlari chuqurlashib borayotgan hozirgi sharoitda tashkilotlarning moliyaviy-ijtimoiy faoliyati ustidan samarali nazorat o'rnatish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, byudjet tashkilotlari, davlat korxonalarini va yirik xususiy sub'yektlarda ichki audit tizimi orqali faoliyatning qonuniyligi, maqsadliligi, tejamkorligi va samaradorligi baholanadi. Ichki audit hisobotlari esa bu jarayonning yakuniy va eng muhim natijalaridan biri bo'lib, ular asosida yuqori darajadagi menejment qarorlar qabul qiladi, strategiyalar belgilanadi va risklar tahlil qilinadi. Shu bois, ushbu hisobotlarning sifatini oshirish, ularni zamonaviy mezonlarga mos tarzda tuzish va taqdim etish jarayonini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biridir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ichki audit hisobotining asosiy vazifasi – tashkilotning moliyaviy va operatsion faoliyatida aniqlangan muammolarni aniq va asosli tarzda bayon qilish, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq, amaliy tavsiyalar berish va ushbu tavsiyalar bajarilishi bo'yicha javobgarlikni belgilashdan iboratdir. Ammo amaliyotda ko'plab ichki audit hisobotlari umumiy iboralar, takroriy jumlar, real holatni aks ettirmaydigan mulohazalarga boy bo'ladi. Bu esa ularning boshqaruv funksiyasidagi ahamiyatini pasaytiradi.

Audit hisobotlarini takomillashtirishda birinchi navbatda xalqaro tajriba va professional standartlarga asoslanish muhimdir. Masalan, The Institute of Internal Auditors (IIA) tomonidan ishlab chiqilgan Professional Practices Framework (IPPF) doirasida hisobotlar uchun quyidagi talablar belgilangan: aniqlik (clarity), aniq dalillarga asoslanish (evidence-based), tavsiyalarning amaliyligi (actionable), muvozanatlilik (objectivity) va maqsadga

muvofiqlik (relevance). O‘zbekistonda ichki audit faoliyatini yuritayotgan tashkilotlar uchun ham ushbu mezonlarga mos keluvchi hisobot tuzish tartibini joriy etish zarur.

Ikkinchi muhim jihat – hisobot tuzish strukturasi va tili. Aksariyat holatlarda ichki audit hisobotlari ortiqcha byurokratik ifodalar, murakkab iboralar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Bu ularning o‘qilishi, tushunilishi va ijrosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun audit hisobotlari aniq bloklarga bo‘lingan, vizual vositalar (jadval, diagramma, grafiklar), raqamli indikatorlar va tavsiyalar matnidan iborat bo‘lishi lozim. Hisobot matnida aniqlangan har bir muammo dalillar bilan mustahkamlanib, unga nisbatan “qanday, nima sababdan, qachon va kim tomonidan bartaraf etilishi kerak” degan savollarga javob bo‘lishi shart.

Bundan tashqari, audit tavsiyalarining monitoringi va bajarilishini kuzatib borish tizimi ham muhim o‘rinda turadi. Ko‘pincha audit hisobotida keltirilgan tavsiyalar qabul qilinadi, biroq ularning amalda bajarilishi yoki samara bergan-bermaganligi yuzasidan tahlil olib borilmaydi. Shu bois, ichki audit hisobotiga alohida “Ijro monitoringi” bo‘limi kiritilishi, unda har bir tavsiya bo‘yicha mas‘ullar, bajarish muddati va baholash mezonlari aniq ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir [1].

Hisobot sifatini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ham dolzarbdir. Zamonaviy elektron audit tizimlari (masalan, TeamMate, IDEA, ACL) yordamida audit natijalari, tavsiyalar, baholash indikatorlari real vaqt rejimida shakllantirilib, raqamli formatda yuqori rahbariyatga yetkazilishi mumkin. Bu audit jarayonining shaffofligini, operativligini oshiradi, inson omilidan kelib chiqadigan sub’yektivlikni kamaytiradi va hisobotlarda izchillikni ta’minlaydi.

Shuningdek, ichki audit hisobotlarining sifati bevosita auditorlarning malakasi, etikasi va tahliliy tafakkuriga bog‘liq. Auditorlar nafaqat moliyaviy hujjatlarni o‘rganish, balki boshqaruv tizimining zaif tomonlarini tahlil qilish, tizimli risklarni ko‘ra olish va ularni oldini olish bo‘yicha aniq, asosli takliflar berishga qodir bo‘lishi lozim. Bu borada ichki auditorlar uchun doimiy malaka oshirish, xalqaro sertifikatlash (masalan, CIA – Certified Internal Auditor) tizimlariga kirish, tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytirish talab etiladi [2].

NATIJALAR

Zamonaviy boshqaruv tizimida ichki audit hisobotlari tashkilotning nafaqat moliyaviy intizomini, balki umumiy strategik barqarorligini baholashda ham asosiy manba hisoblanadi. Biroq ichki audit hisobotlari ko‘p hollarda faqat aniqlangan xatoliklar, hujjatlar bilan bog‘liq muammolar yoki normativlardan og‘ishlar doirasida shakllanadi. Holbuki, samarali ichki audit hisobotlari boshqaruv tuzilmasidagi ichki muvofiqlik, risklar holati va resurslardan foydalanish samaradorligini chuqur tahlil qilishga asoslangan bo‘lishi lozim [3].

Shu nuqtai nazardan, ichki audit hisobotlarini takomillashtirishda riskga asoslangan yondashuvni to‘laqonli joriy etish zarur. Riskga asoslangan audit tamoyillariga ko‘ra, hisobotda aniqlangan muammo emas, balki u orqali yuzaga chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlar darajasi tahlil qilinishi lozim. Masalan, oddiy xarid protsedurasidagi xatolik o‘z-o‘zidan jiddiy muammo bo‘lmasligi mumkin, ammo u yirik moliyaviy yo‘qotish yoki korrupsiyaviy xavfga olib kelish ehtimoli mavjud bo‘lsa, bu holat hisobotda alohida qayd etilib, boshqaruvning e‘tibor markaziga aylanishi kerak.

Bundan tashqari, hisobot tuzishda manfaatdor tomonlar bilan interaktivlikni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda ichki audit hisobotlari faqat rahbariyat uchun tuziladi, boshqa bo‘limlar, xodimlar yoki mas‘ul tizimlar bu jarayondan chetda qoladi. Bu esa tavsiyalarning qabul qilinish darajasini pasaytiradi. Shu sababli, hisobot tayyorlash jarayonining yakuniy bosqichida auditi o‘tkazilgan bo‘lim bilan maslahatlashuv, tushuntirish va fikr almashish asosida yakuniy redaksiyani shakllantirish tavsiya etiladi. Bu uslub tavsiyalarning amaliy hayotga tatbiq etilish ehtimolini oshiradi va ularni “boshqaruv qaroriga aylantirish” imkonini beradi [4].

Shuningdek, ichki audit hisobotlarini takomillashtirishda maqsadli indikatorlarga asoslangan baholash tizimini kiritish muhim. Hisobotda aniqlangan holatni subyektiv tarzda “kamchilik” yoki “samarasizlik” deb belgilash o‘rniga, uni miqdoriy va sifat jihatidan o‘lchab baholash zarur. Masalan, budget sarflarining reja bilan tafovuti foizlarda ifodalanishi, xizmat ko‘rsatish tezligining normativga nisbati, zahiradagi resurslarning aylanish koeffitsienti kabi ko‘rsatkichlar orqali tavsiyalar asoslanadi. Bu esa hisobotni analitik vositaga aylantirib, uning qiymatini oshiradi.

Ichki audit hisobotining yana bir muhim jihati — bu davomiylik va nazorat sikliga integratsiyalashuvdir. Ko‘p hollarda hisobotlar yillik yoki choraklik davrlarda tayyorlanib, bir martalik hujjat sifatida qaraladi. Ammo zamonaviy boshqaruv muhitida audit faqat bir martalik tekshiruv emas, balki ketma-ket tahlil, natijalarga asoslangan monitoring va tavsiyalarning hayotiy sikliga integratsiyalashgan faoliyat bo‘lishi kerak. Shu bois, hisobotga “avvalgi tavsiyalar bajarilishi”, “dinamik risklar tahlili” yoki “rejalashtirilayotgan islohotlar monitoringi” kabi boblar kiritilishi tavsiya etiladi [5].

Bundan tashqari, ichki audit hisobotini takomillashtirishda audit etikasi va auditor shaxsiy mas‘uliyatining rolini ham chetlab o‘tib bo‘lmaydi. Hisobotda har bir aniqlangan muammo haqida xolis, asosli va dalillangan mulohaza bildirish auditorning nafaqat texnik malakasi, balki kasbiy vijdoniga bog‘liqdir. Auditor hisobotda hech bir manfaatdor tomonning ta’siri ostida qolmasdan, tashkilotning uzoq muddatli manfaatlarini ko‘zlab fikr bildirishi lozim. Shu ma’noda, auditorlarning doimiy axloqiy va professionallik bo‘yicha

tayyorgarligi, halollik tamoyiliga qat’iy amal qilishi hisobotlarning real qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

XULOSA VA MUNOZARA

Ichki audit hisobotlari tashkilot faoliyatining muhim diagnostik vositasi bo‘lib, u orqali nafaqat moliyaviy xatolar aniqlanadi, balki tizimli risklar, boshqaruvdagi zaifliklar va yondashuvlardagi nomutanosibliklar aniqlanadi. Shu boisdan, ichki audit hisobotlarini takomillashtirish — bu faqat texnik yangilanish emas, balki boshqaruv madaniyatini oshirish, qaror qabul qilishda ilmiy asosga suyanish va tashkilotda ochiq, javobgar, natijaga yo‘naltirilgan muhit yaratish vositasidir. Yaxshi tuzilgan, aniq, tavsiya va bahoga boy ichki audit hisobotlari har qanday tashkilot uchun beqiyos axboriy resurs hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. The Institute of Internal Auditors (IIA). International Standards for the Professional Practice of Internal Auditing (IPPF). – 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining “Ichki audit to‘g‘risidagi nizomi”. – Toshkent, 2021.
3. Nurmatov, S. Moliya nazorati va ichki audit asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Shermatov, I. Korxonalarda ichki audit tizimini takomillashtirish yo‘llari // Ilm va taraqqiyot. – 2022. – №2. – B. 83–90.
5. Ernst & Young. Best Practices in Internal Audit Reporting. – London: EY Publications, 2020.